



THE REASONS AND HISTORICAL CIRCUMSTANCES FOR WRITING THE WORK "TABSIR FI MA'ALIM AD-DIN"

Habibullo Sagdiyev

Associate Professor, Uzbekistan International Academy of Islamic Studies, PhD

Mohigul Mutalibjonova

1st year Master's student, Uzbekistan International Academy of Islamic Studies

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19709026>

ARTICLE INFO

Received: 18th April 2026

Accepted: 22nd April 2026

Online: 23rd April 2026

KEYWORDS

Ibn Jarir al-Tabari, Tabsir fi ma'alim ad-din, 'aqidah, Ahl al-Sunnah, kalam, Abbasid period, Mu'tazilism, theological disputes.

ABSTRACT

This article analyzes the reasons behind the writing of Ibn Jarir al-Tabari's work "Tabsir fi ma'alim ad-din", as well as the historical and social factors that influenced its emergence. In addition, the study examines the methodology employed in the work, particularly al-Tabari's approach to utilizing the primary sources of Islam—the Qur'an and the Sunnah. Based on scholarly sources, the article highlights that in the 9th–10th centuries, during the Abbasid period, theological debates intensified within the Islamic world, leading to the formation of various sects and intellectual trends. In particular, it is shown that the activities of the Mu'tazilites and other theological movements necessitated the defense of Sunni doctrine. The research employs historical-analytical and comparative methods. The findings demonstrate that "Tabsir fi ma'alim ad-din" was written with the aim of systematically presenting Sunni theology, providing scholarly refutations of heterodox views, and reinforcing the fundamental principles of Islamic creed. The article also examines the work's place and scholarly significance in the history of 'aqidah studies.

ПРИЧИНЫ И ИСТОРИЧЕСКИЕ ОБСТОЯТЕЛЬСТВА НАПИСАНИЯ ТРУДА «ТАБСИР ФИ МААЛИМ АД-ДИН»

Хабибулло Сагдиев

доцент, Международная академия исламоведения Узбекистана, кандидат наук

Мохигуль Муталибжонова

студентка 1-го курса магистратуры, Международная академия исламоведения Узбекистана

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19709026>

ARTICLE INFO

Received: 18th April 2026

Accepted: 22nd April 2026

Online: 23rd April 2026

KEYWORDS

ABSTRACT

В данной статье анализируются причины написания труда Ибн Джарира ат-Табари «Tabsir fi ma'alim ad-din», а также историко-социальные факторы,



Ибн Джарир ат-Табари, «*Tabsir fi ma'alim ad-din*», наука 'ақыда, ахлю-с-сунна, калам, эпоха Аббасидов, мутазилизм, догматические разногласия.

повлиявшие на его создание. Кроме того, рассматривается методология, применённая в данном произведении, в частности, способы использования ат-Табари основных источников ислама — Корана и Сунны. На основе научных источников освещается, что в IX–X веках, в эпоху Аббасидов, в исламском мире усилились догматические дискуссии, в результате чего сформировались различные течения и направления. В частности, показано, что активная деятельность мутазитов и других богословских школ обусловила необходимость защиты суннитского вероучения. В исследовании использованы историко-аналитический и сравнительный методы. В результате установлено, что труд «Табсир фи маалим ад-дин» был написан с целью системного изложения суннитской догматики, научного опровержения нововведенческих взглядов и укрепления основных принципов исламского вероучения. Также раскрывается место и научное значение данного труда в истории науки 'ақыда.

TABSIR FI MA'ALIM AD-DIN" ASARINING YOZILISH SABABLARI VA TARIXIY SHAROITI

Habibullo Sagdiyev

O'zbekiston xalqaro islomshunosik akademiyasi dotsenti, PhD

Mohigul Mutalibjonova

O'zbekiston xalqaro islomshunosik akademiyasi 1-bosqich magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19709026>

ARTICLE INFO

Received: 18th April 2026

Accepted: 22nd April 2026

Online: 23rd April 2026

KEYWORDS

Ibn Jarir al-Tabari, "Tabsir fi ma'alim ad-din", aqida ilmi, Ahlus-sunna, kalom, Abbosiylar davri, mo'taziliya, aqidaviy ixtiloflar.

ABSTRACT

Mazkur maqolada Ibn Jarir Tabariyning "Tabsir fi ma'alim ad-din" asarining yozilish sabablari va uning vujudga kelishiga ta'sir ko'rsatgan tarixiy-ijtimoiy omillar tahlil qilinadi. Bundan tashqari ushbu asarda qo'llanilgan uslub, islomdagi asosiy manba Qur'on va sunnatdan Tabariyning foydalanish uslubi o'rganiladi. IX–X asrlarda Abbosiylar davrida islom olamida aqidaviy bahs-munozaralar kuchayib, turli firqa va yo'nalishlar shakllanganligi ilmiy manbalar asosida yoritiladi. Xususan, mo'taziliylar va boshqa aqidaviy oqimlarning faoliyati natijasida Ahlus-sunna aqidasi himoya qilish zarurati yuzaga kelgani ko'rsatib beriladi. Tadqiqotda tarixiy-tahliliy va qiyosiy metodlardan foydalanilgan. Maqola natijalariga ko'ra, "Tabsir fi ma'alim ad-din" asari sunniy



aqidani tizimli ravishda bayon qilish, bid'atchi qarashlarga ilmiy javob berish hamda islom aqidasi asosiy tamoyillarini mustahkamlash maqsadida yozilganligi asoslanadi. Asarning aqida ilmi tarixidagi o'рни va ilmiy ahamiyati ham yoritiladi.

KIRISH

Islomda aqida ilmi musulmonlarning e'tiqodiy qarashlarini shakllantiruvchi asosiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. E'tiqodni Qur'on va sunnatga muvofiq shakllantirish, Qur'on oyatlariga va hadislarga zid bo'lgan e'tiqoddan yiroq bo'lish, sof aqida e'tiqodida bo'lish juda muhim hisoblanadi. Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, hijriy III–IV asrlarga kelib musulmon jamiyatida turli aqidaviy oqimlar va firqalar paydo bo'lib, e'tiqod masalalarini aniqlashtirish zarurati keskin¹. Shu sababli ushbu davrda ahli sunna aqidasi himoya qilish, buzilgan aqidani to'g'irlab, uni tizimli bayon etish olimlar oldidagi muhim vazifa bo'lib hisoblanila boshladi, ahli sunna aqidasi himoya qilishga va adashgan firqalarga raddiya berishga qaratilgan ko'plab asarlar yuzaga kela boshladi.

Ana shunday muhim asarlardan biri at-Tabsira fi ma'alim ad-din bo'lib, uning muallifi yirik mufassir va tarixchi Muhammad ibn Jarir at-Tabari hisoblanadi. Ibn Jarir Tabariy ahli sunnaning buyuk imomlaridan biri bo'lib, tavihid masalasi, iymon asoslari, sahobalar va imomlikdan kelib chiqadigan masalalarda salafi solihlarning aqida yo'liga amal qilgan.²

Tadqiqotchilar ta'kidlashicha, Tabariy ushbu asarida islom aqidasi asosiy masalalarini Qur'on va hadisga tayangan holda izchil bayon qilgan³. Asarda Allohning sifatleri, iymon, qiyomat va boshqa muhim aqidaviy tushunchalar yoritiladi. Mazkur mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, Muhammad ibn Jarir at-Tabari yashagan davrdagi ijtimoiy-siyosiy va ilmiy muhitni tahlil qilish orqali asarning yozilish sabablari va uning tarixiy ahamiyatini chuqurroq anglash mumkin. Chunki har qanday ilmiy asar muayyan davr ehtiyojlari va muammolariga javoban yaratiladi.

Ushbu maqolaning maqsadi — "at-Tabsir fi ma'alim ad-din" asarining yozilish sabablari hamda tarixiy sharoitini ilmiy jihatdan tahlil qilishdan iborat. Shuningdek, asarning aqida ilmi rivojida o'рни va ahamiyati ham yoritiladi.

ASOSIY QISM

Musulmon olamida aqidaviy masalalarni tizimli shaklda bayon qilish va firqaviy ixtiloflarga ilmiy javob berish uzoq tarixiy jarayonning muhim qismi hisoblanadi. Hijriy III–IV asrlar, xususan, Abbosiylar davrida jamiyatda turli firqa va oqimlar yuzaga kelib, e'tiqodiy masalalarda ixtiloflar

¹ Abu al-Hasan al-Ash'ariy. Maqolat al-islamiyyin va ixtilof al-musallin / H. Ritter tahriri. – Istanbul: Matbaat ad-davla, 1929. – B. 1.

² Ibn Jarir Tabariy. Tabsir fi Ma'alim ad-din // Ali ibn Abdulaziz as-Shibli tahqiqi. – Riyod: Darul asima nashriyoti, 1997. – B. 29.

³ Shamsuddin az-Zahabiy. Siyar a'lam an-nubala / Shuaib al-Arnaut tahriri. – Bayrut: Muassasa ar-Risala, 1985. – J. 14. – B. 267–282.



kuchaygan. Xossatan III-asrda mo'tazila mazhabi tarafdorlari xukumatga yaqin bo'lib ayniqsa, Abbosiy xalifa Ma'mun boshqaruvida davlat ahamiyatiga ko'tarildi. "Mixna harakati" (221-232\836-847) nomi bilan atalgan bu jarayon, insonlarga majburan "Qur'on maxluq" degan qarashni qarashni qabul qildirish maqsadida xalifalik tomonidan turli choralar ko'rilgan.⁴ "Mixna harakati" dan 3 yil o'tib 225/840, ba'zi manbalarda 4 yildan keyin 224/839 yili⁵ Muhammad ibn Jarir at-Tabariy tavallud topib, islom sivilizatsiyasini tadvin etish davrida yashagan va u ahlus-sunna val-jamoaning buyuk to'rt imomi vafotidan qisqa vaqt o'tgan davrda o'z ijodini boshlagan⁶. Bu davrda jamiyatdagi bahsli masalalarga javob berish, to'g'ri e'tiqodni bayon qilish va mo'tazila kabi firqalarning noto'g'ri qarashlarini ilmiy asosda rad etish maqsadida islom olimi Muhammad ibn Jarir at-Tabariy o'zining "at-Tabsir fi ma'alim ad-din" asarini yozadi. Asarning yozilishiga tadqiqotchilar turli sabablarni keltiradilar, birinchi navbatda, musulmonlar orasida aqidaviy ixtiloflarning kuchaygani va to'g'ri e'tiqodni Qur'on va hadis asosida izchil bayon qilish zarurati mavjudligi, ikkinchidan, Tabariston hududidagi, xususan Omul ahli orasida yuzaga kelgan bahsli masalalarga aniqlik kiritish

ehtiyoji, uchinchidan, jamiyatda umumiy ravishda aqidaviy yetakchilik vazifasini bajarish talabi bilan bog'liq edi. Bu jihat asarda aniq ifodalanadi: Muhammad ibn Jarir at-Tabari o'z muqaddimasida yozadi: "Fa innakum sa'altumuni tabsirakum subul ar-rashad" ("Sizlar mendan to'g'ri yo'lni bayon qilib berishni so'radingiz"), shuningdek, matnda aynan *من أهل طبرستان* ("Tabariston, Omul ahli") hududi aholisi nazarda tutilgan. Shu jumla asarning yaratilish sababi va amaliy vazifasini, ya'ni jamiyatdagi ehtiyoj va murojaat asosida yuzaga kelganini ochib beradi. Asar nafaqat mo'tazila va boshqa firqalarga ilmiy raddiya berish, balki Tabariston hududidagi bahsli aqidaviy masalalarni ham yoritish bilan ahamiyatlidir. Tadqiqotchilar ta'kidlaydiki, asarning turli nomlar bilan qo'llanilib kelganini qayd qiladi: "at-Tabsir", "Kitab at-Tabsir fi usul ad-din"⁷ va "Basir fi ma'alim ad-din"⁸. Asarda Allohni sifatleri isbotlash, Allohni ko'rish va qabr azobi kabi masalalarni Qur'ondan va sahih hadislar bilan dalil keltiradi, muallif fikrlar (aqidaviy qarashlar) ko'pligini zikr qiladi — ayniqsa o'z davrida mashhur bo'lgan qarashlarni — va ba'zi hollarda o'zi tanlagan qarashni boshqalarga nisbatan ustun qo'yadi. Ba'zan esa ayrim fikrlarni yetarli darajada tanqid qilmasdan ham keltiradi. Shuningdek, ba'zi hollarda

⁴ Tabariy. Tarix ar-rusul val-muluk // I-XI.

Muhammad Abufazl Ibrohim tahqiqi.-Qohira: Dor al-ma'rifat, 1387/1967.- J. VIII.-B. 631-645

⁵ Ishsulton Fikrit. Tabari. -Istanbul: 1979.-J. XI.-

B.594.; Abul Faraj Muhammad ibn Abu Ya'qub ibn Isxoq Nadim Varroq Bag'dodiy. Al-Fixrist fi axbor al-alamoi musannifin minal qudamail va al-muhaddisin va asmai kutubixim.-Bayrut: Dor al-Ma'rifat, 1978. - B.326.; Shamsuddin Zahabiy. Siyar

a'lam an-nubalo. Bayrut: Muassasa ar-risola, 1983.- J. XIV.-B.276.

⁶ M.M.Agzamova. Ibn Jarir Tabariyning "Tarix ar-rusul va-l-muluk" asari islom tarixiga oid manba monografiya: Bookmany print, 2024. — B.13.

⁷ Subkiy. Tabaqot ash-shofiyya al-qubro. — Qohira: Dor al-ixya al-kitab al-arabiy, 1976. — J. III. — B. 121.

⁸ Ali ibn Abdulaziz ibn Ali Shibl. Abu Ja'far Muhammad ibn Jarir at-Tabariy. Makatabat ar-Rush, Riyod 2004.-B. 105.



ma'lum bir fikrning sababini zikr qiladi, biroq uni qabul qilmasdan, ayniqsa mo'taziliylar qarashlarini tilga olganda, ularning dalillari yoki aqliy shubhalarini ko'rsatish bilan cheklanadi. Har bir masalada ahl al-haqq (haqiqat ahli) — ya'ni ahlus-sunna val-jamoa qarashini zikr qiladi va uni asosiy manba sifatida keltiradi. Ba'zan: "Bizning nazdimizda haqiqat shudir" yoki "Isbot ahli (ahl al-isbat)ning ko'pchiligi shunday degan" kabi iboralarni ishlatadi. Bu esa muallifning ahlus-sunna qarashini tanlaganini va qo'llab-quvvatlaganini ko'rsatadi hamda boshqa qarashlarning zaifligini ishora yo'li bilan bildiradi yoki ularga rad javobini beradi. Munozara va dalillarni bayon etishda muallif har bir masalada muxolif tomon — ya'ni mo'taziliylar — tilidan bahs yuritadi. Imom Ibn Jarir mu'taziliylarning dalillarini keltirish usulini qo'llaydi. Ular aytgan gaplarni: "Ular shunday dedilar" kabi iboralar bilan keltirib, so'ngra ularga to'g'ridan-to'g'ri javob beradi. Faqat Allohni ko'rish (ru'yat) masalasida u ularning dalillarini bir martada umumiy tarzda keltirgan. Muallif ayrim masalalarning batafsil bayonini ushbu asarda keltirmaydi, balki ularni boshqa joyga yo'naltiradi. Ba'zan esa bu yo'naltirishni aniq qilib, qaysi kitobga murojaat qilish kerakligini ham ko'rsatadi. Masalan, ba'zi masalalarda "Tafsir al-mustarshid" asariga, ayrim ixtilofiy masalalarda esa "Ahkam ahl al-bagiy" kitobiga ishora qiladi. Ushbu kitob Ibn Jarirning eng muhim masalalarini jamlash jihatidan ajralib turadi. Shuningdek, unda aqidaviy ixtilof masalalari muayyan tartib asosida ketma-ket bayon qilingan. Har bir masala o'z turiga qarab tasniflanadi va unda

birinchi hamda ikkinchi darajali ixtiloflar alohida ko'rsatib o'tiladi. Bu xususiyat muallifning oldingi va keyingi asarlarida ham aniq namoyon bo'ladi. Mazkur jihat iboralarni tushunish va ularning o'zaro bog'liqligini anglashda hamda ayrim hukmlarni boshqalari asosida qurishda muhim rol o'ynaydi. Shu jihatlar asarning nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatini oshiradi va u keyingi davr islom ulamolari uchun aqida ilmida ishonchli manba sifatida xizmat qilganini ko'rsatadi. Shunday qilib, "at-Tabsir fi ma'alim ad-din" asari jamiyatdagi ixtiloflarni bartaraf etish, to'g'ri e'tiqodni bayon qilish va mo'tazila qarashlariga raddiya berish maqsadida yaratilgan bo'lib, arabiy matndagi murojaat, tarixiy sharoit va tadqiqotchilar xulosalari bilan birgalikda uning ilmiy va amaliy ahamiyatini to'liq ochib beradi. Imom Ibn Jarir al-Tabariyning ushbu asari Islom aqidasiining fundamental asoslarini ahlus-sunna val jamoa e'tiqodi bo'yicha tahlil qilib beruvchi eng ishonchli manbalardan biri hisoblanadi. Mazkur asar nafaqat nazariy ma'lumotlarni, balki muallif yashagan davrdagi murakkab ijtimoiy va diniy jarayonlarni ham o'zida aks ettirgan. Kitobning kirish qismida Imom Tabariy o'z yurti Tabaristonda turli bid'at va noto'g'ri tushunchalar yoyilganidan tashvishga tushib, haqiqiy sunnat yo'lini ko'rsatib berish maqsadida ushbu asarni bitganini bayon qiladi.

Asarning mazmuni Islom dinining eng muhim ustunlaridan boshlanadi. Unda Alloh taoloning yagonaligi, Uning zotiga xos bo'lgan go'zal ismlari va sifatleri haqidagi haqiqatlar bayon etilgan. Ayniqsa, mo'taziliy va jahmiy kabi toifalar bilan yuzaga kelgan ixtilofli masalalar, xususan, Allohning sifatlarini



inkor etuvchilarga nisbatan aqliy va naqliy raddiyalar berilgan. Muallif vahiyilar orqali sobit bo'lgan xabariy sifatlarni qanday tushunish lozimligini dalillar bilan tushuntirib o'tadi.

Shuningdek, asarda iymon masalasi keng yoritilgan bo'lib, unda iymonning tildagi iqrora, qalbdagi tasdiq va amaldagi isboti haqida so'z boradi. Iymonning ziyoda bo'lishi yoki kamayishi borasidagi qarashlar, katta gunoh qilgan mo'minning Islomdagi o'rni kabi masalalar murjiylik va xavorijlik kabi qarama-qarshi oqimlarning da'volariga javob tariqasida taqdim etiladi. Islom tarixidagi eng og'riqli nuqtalardan biri bo'lgan Qur'onning yaratilmaganligi va u Allohning kalomi ekani haqidagi qat'iy pozitsiya asarning markaziy mavzularidan biri sanaladi.

Insonning vafotidan keyingi holati, ya'ni barzah hayoti, qabr azobi va qabrdagi savol-javoblar haqidagi xabarlarning haqiqat ekani sahih hadislar bilan mustahkamlanadi. Oxirat kunida mo'minlarning Alloh taoloni ko'rishi, ya'ni ru'yatulloh masalasi ham batafsil tahlil qilinib, bu boradagi shubhalarga ilmiy yakun yasaladi. Asar nafaqat aqidaviy matn, balki boy manbashunoslik bazasiga ham ega. Unda keltirilgan oyatlar, hadislar, mashhur shaxslar va joy nomlarining mukammal ko'rsatkichlari, shuningdek, matndagi murakkab so'zlarning lisoniy tahlili

kitobning ilmiy qiymatini yanada oshiradi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash lozimki, Abu Jafar Muhammad ibn Jarir at-Tabariy nafaqat buyuk mufassir, tarixchi va faqih, balki islom aqidasi ilmini fundamental darajada egallagan yetuk mujtahid olim hamdir. Muallifning "at-Tabsir fi ma'alim ad-din" asari uning e'tiqodiy masalalardagi teran ilmi va uslubiy mahoratini yorqin namoyon etadi. Ibn Jarir al-Tabariy mazkur asar orqali sof islom aqidasi hisoblangan Ahli sunna val jamoa pozitsiyasini qat'iy himoya qilib, o'z qarashlarini asoslashda naqliy hamda aqliy dalillarni o'zaro uyg'unlashtirgan holda, o'sha davrda yuzaga kelgan aqidaviy inqirozlarga ilmiy yechim topa olgan.

Olim o'z davrining turli adashgan toifalari va bid'atchi firqalari tomonidan ilgari surilgan shubhalarga mantiqiy hamda o'rinli raddiyalar berib, Islomning asl e'tiqodiy tamoyillarini himoya qilgan. "at-Tabsir fi ma'alim ad-din" asari shunchaki tarixiy meros emas, balki Ahli sunna aqidasi tizimli ravishda bayon etgan va e'tiqodiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qilgan muhim doktrinal manbadir. Umuman olganda, mazkur asar Tabariyning ilmiy faoliyatida alohida o'rin tutadi va islom aqidasi tarixi hamda metodologiyasini o'rganuvchi tadqiqotchilar uchun bugungi kunda ham fundamental qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.